

SCIENCE PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

2/S-son (4-jild)

2024

SCIENCEPROBLEMS.UZ

ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

№ S/2 (4) - 2024

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

ТОШКЕНТ-2024

БОШ МУҲАРРИР:

Исанова Феруза Тулқиновна

ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:

07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ:

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Мавланов Уктам Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Абдор – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

Турсунов Равшан Нормуратович – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллий Университети;

Холиқулов Ахмаджон Боймаҳамматович – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллий Университети;

Габриэльян Софья Ивановна – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Миллий Университети.

08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:

Карлибаева Рая Хожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Насирходжаева Дилафруз Сабитхановна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Остонокулов Азамат Абдукаримович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент молия институти;

Арабов Нурали Уралович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Худойқулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўктамович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Ҳожаев Азизхон Саидалоҳонович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Фарғона политехника институти

Холов Актам Хатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Хамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б, Тошкент молия институти;

Шакарров Қулмат Аширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети

09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:

Ҳакимов Назар Ҳакимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яхшиликков Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Ғайбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Саидова Камола Усканбаевна – фалсафа фанлари доктори, “Tashkent International University of Education” халқаро университети;

Ҳошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Ўроқова Ойсулув Жамолiddиновна – фалсафа фанлари доктори, доцент, Андижон давлат тиббиёт институти, Ижтимоий-гуманитар фанлар кафедраси мудир;

Носирходжаева Гулнора Абдукаҳхаровна – фалсафа фанлари номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Турдиев Бехруз Собирович – фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Бухоро давлат университети.

10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шухрат Норқизилович – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳасанов Шавкат Аҳадович – филология фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Бахронова Дилрабо Келдиёровна – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Мирсанов Ғайбулло Қулмуродович – филология фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Салахутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Раҳман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдуллаевич – филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Саидов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАР:

Ахмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуратовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович – юридик фанлар доктори, профессор в.б., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;

Зулфиқоров Шерзод Хуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфсизлиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Ғайбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Утемуратов Махмут Ажимуратович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳакимов Комил Бахтиярович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Юсупов Сардорбек Баходирович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Амиров Зафар Актамович – юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD), Ўзбекистон Республикаси Судьялар олий кенгаши ҳузуридаги Судьялар олий мактаби;

Жўраев Шерзод Юлдашевич – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Бабаджанов Атабек Давронбекович – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Раҳматов Элёр Жумабоевич – юридик фанлар номзоди, Тошкент давлат юридик университети;

13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:

Хашимова Дильдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Хавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Закирова Феруза Махмудовна – педагогика фанлари доктори, Тошкент ахборот технологиялари университети ҳузуридаги педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази;

Қаюмова Насиба Ашуровна – педагогика фанлари доктори, профессор, Қарши давлат университети;

Тайланова Шохидат Зайниевна – педагогика фанлари доктори, доцент;

Жуманиёзова Муҳайё Тожиевна – педагогика фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Ибрахимов Санжар Урунбаевич – педагогика фанлари доктори, Иқтисодиёт ва педагогика университети;

Жавлиева Шахноза Баходировна – педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети;

Бобомуротова Латофат Элмуродовна – педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети.

19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Каримова Василя Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Ҳайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбахор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психология кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Шамшетова Анжим Караматдиновна – психология фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари доктори (PhD), Самарканд вилоят ИИБ Тиббиёт бўлими психологик хизмат бошлиғи.

Содиқова Шоҳида Мархабобевна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси.

22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Латипова Нодира Мухтаржановна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;

Сеитов Азамат Пўлатович – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР

Назаров Насриддин Атақулович – сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура қурилиш институти;

Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич – сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири.

ОАК Рўйхати

Мазкур журнал Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхатига киритилган.

Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари” электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамияти

Таҳририят манзили:

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил: scienceproblems.uz@gmail.com

Боғланиш учун телефонлар:

(99) 602-09-84 (telegram).

07.00.00 – ТАРИХ ФАНЛАРИ

Полвонов Козимбек

ЎЗБЕКИСТОННИНГ ЖАНУБИЙ ШАҲАРЛАРИ ТОПОНИМИГА ОИД
МАЪЛУМОТЛАР 10-15

Hadjamuratova Matlyuba

МАКТАВГАСНА ТА’ЛИМДА БОЛАЛАРНИ ИЈТИМОЙ НИМОYA QILISHGA INNOVATSION
YONDOSHUVNING DOLZARBLIGI 16-21

Шовкатов Шокир Шовкат ўғли

АБУЛ-ЮСР ПАЗДАВИЙ ИЛМИЙ МЕРОСИНИ ЎРГАНИШДАГИ ЁНДАШУВЛАР 22-31

Mo‘minov Xusanboy Madaminjonovich, Qodirjonov Omadjon Tavakkaljon o‘g‘li

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA SUD QONUNCHILIGIGA KIRITILGAN O‘ZGARISHLAR VA
ULARNING ANAMIYATI 32-36

Пардаев Асрор

ҚАШҚАДАРЁ ВИЛОЯТИ АҲОЛИСИНИ ХАЛҚ ИСТЕЪМОЛИ ВА ОЗИҚ-ОВҚАТ
МАҲСУЛОТЛАРИ БИЛАН ТАЪМИНЛАШ МАСАЛАЛАРИ 37-42

08.00.00 – ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ

Умурзақова Мўътабархон Нодир қизи

ЖАХОНДА ТИББИЙ СУҒУРТА ТИЗИМИНИНГ РИВОЖЛАНИШ ХУСУСИЯТЛАРИ 43-52

Рахманов Зафар

ТИЖОРАТ БАНКЛАРИДА ДЕПОЗИТ ОПЕРАЦИЯЛАРИНИНГ РИВОЖЛАНИШ
ТЕНДЕНЦИЯЛАРИНИ БАҲОЛАШ 53-62

Аминов Фазлитдин Бахадирович

РОЛЬ И ЗНАЧЕНИЕ СЕМЕЙНОГО ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА В ЭКОНОМИКЕ
РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН 63-70

Курбонова Шахриноз Авазхоновна

ИҚТИСОДИЁТНИ ДИВЕРСИФИКАЦИЯЛАШ ЖАРАЁНЛАРИДА АСОСИЙ ВОСИТАЛАР
ТАҲЛИЛИНИ ЎЗИГА ХОС ЖИҲАТЛАРИ 71-81

Azimova Hulkar Egamberdiyevna

KREDIT PORTFELINI SAMARALI BOSHQARISHDA TIJORAT BANKLARINING O‘RNI 82-87

Rajabov Orzujon Mamasoliyevich

LOGISTIKA XIZMATLARINI KO‘RSATISHDA BUYUMLAR INTERNETI (INTERNET OF
THINGS)DAN FOYDALANISH 88-93

Саидов Сарвар Хайруллоевич

ДАВЛАТ ХИЗМАТЧИЛАРИДА БОШҚАРУВ КОМПЕТЕНЦИЯЛАРИНИ ШАКЛЛАНТИРИШ
БОРАСИДА ХОРИЖ ТАЖРИБАСИ 94-104

Сержанов Аймурат Медетбаевич

ХАЛҚАРО АМАЛИЁТ ВА ЎЗБЕКИСТОНДА РАҚАМЛИ БАНКЛАР ХИЗМАТЛАРИНИ ЯРАТИШ
ЗАРУРИЯТИ 105-111

Туробов Шерзод Алишеревич, Ибодуллаев Зафар Ибодуллаевич

ТИЖОРАТ БАНКЛАРИ ФАОЛИЯТИНИ ТАРТИБГА СОЛИШНИНГ ХОРИЖ
ТАЖРИБАСИ 112-119

Daniyarova Feruza Baxriddinovna, Chinorova Shahodat Mansur qizi

O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTIGA HORIJIIY INVESTITSIYALARNI JALB QILISH
YO‘LLARI 120-126

Temirova Feruza Sagdullayevna
XULQ-ATVOR IQTISODIYOTI VA BRENDGA SODIQLIK 127-132

Sharipova Shaxzoda Xasanovna
YANGI O‘ZBEKISTONDA TURIZM MADANIYATINI YUKSALTIRISH ISTIQBOLLARI 133-138

09.00.00 - ФАЛСАФА ФАНЛАРИ

Алимова Шахноза Хамидовна
НОГИРОНЛИГИ БОР ЁШЛАР - АЛОҲИДА ХУСУСИЯТГА ЭГА ИЖТИМОЙ-ДЕМОГРАФИК
ГУРУҲ СИФАТИДА 139-147

Асракулова Адиба Набиевна
“ЁШЛАР ВА БИЗНЕСНИ ҚЎЛЛАБ-ҚУВВАТЛАШ ЙИЛИ” НИНГ ҚАБУЛ ҚИЛИНИШИ
ТАДБИРКОРЛАРНИНГ ИҚТИСОДИЙ ТАФАККУРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШДАГИ
АҲАМИЯТИ 148-154

10.00.00 - ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ

Teshabayeva Dilfuza Muminovna
LEXICAL PROBLEMS OF TRANSLATING THE NAMES OF NEW PHENOMENA IN MASS
MEDIA 155-160

Rustamov Ilhom Tursunovich, Inog‘omjonova Robiya Rustamjon qizi
INTERFERENSIYA HODISASINING TILDA AKS ETISHI XUSUSIDA OLIMLARNING
TADQIQOTLARI VA QARASHLARI 161-165

Abdikhmidova Sevinch Obidjon kizi
PROBLEMS FACED IN TRANSLATING PROPER NOUNS 166-170

Djurakulova Elmira Suyunova
SHOYIM BO‘TAYEV ROMANLARIDA BADIY XRONOTOP VA MIFOLOGIK TALQIN 171-177

Dalieva Madina Khabibullaevna
THE ROLE OF BLENDING THEORY IN POLYSEMY AND METAPHOR 178-183

Жўраева Ирода Ахмедовна
ИНГЛИЗ ВА ЎЗБЕК АНТРОПОНИМИК ЛУҲАТЛАР ТИПОЛОГИЯСИ 184-189

Iminova Shahnoza-Begim Bahodirovna
INGLIZ TILIDA INSONNING IJOBIY AQLIY XUSUSIYATLARINING IFODALOVCHI
BIRLIKLARINING KONSEPTUAL, LINGVO-MADANIY XUSUSIYATLARI 190-193

Irgasheva Shoxida Sadriddinovna
INTERNET DISKURSIDAGI IQTISODIY NEOLOGIZMLARNI TARJIMA QILISH
XUSUSIYATLARI 194-200

Tursunova Zarina Farxodovna
LINGVISTIKADA EMOTLARNI O‘RGANISHGA ZAMONAVIY YUNDASHULAR (INGLIZ TILI
ASOSIDA)..... 201-205

Satibaldiyev Erkinjon Kamilovich
PARADIGMATIC SOUND INTERFERENCE IN THE ENGLISH SPEECH OF
TURKOPHONES 206-212

Radjabova Hafiza Shukrulloevna
INGLIZ VA O‘ZBEK TERMINOLOGIYASINING METODOLOGIK ASOSLARI 213-220

Avezova Dilovar Salimovna
TAXALLUSLARNI O‘RGANISHNING NAZARIY JIHATI 221-225

<i>Alikberova Kamila Adhamovna</i> A CRITICAL ANALYSIS OF LANGUAGE USE AND LANGUAGE ACQUISITION	226-232
<i>Rakhmatova Bahara Ibodulla qizi</i> THE ROLE OF LEGAL DISCOURSE IN MODERN LINGUISTICS	233-238
<i>Valieva Nargizakhon Zamir kizi</i> COMPARATIVE ANALYSIS OF “KITE RUNNER” AND “A THOUSAND SPLENDID SUNS” BY KHALED HOSSEINI: THEMES, CHARACTERS, AND SOCIOPOLITICAL CONTEXT	239-244
<i>Mamatqulova Zilola Rejabaliyevna</i> RISHTON KULOLCHILIK MAKTABI KASB-HUNAR LEKSIKASINING STUKTURAL TASNIFI	245-251
<i>Alimova Kamola Tursunovna</i> CHALLENGES IN PREPARATION OF GUIDE TRANSLATORS	252-258
<i>Сейтумбетова Айкумар Пулатбаевна</i> ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ФРАЗЕОЛОГИЧЕСКИХ ЕДИНИЦ В АНГЛИЙСКОМ, РУССКОМ И КАРАКАЛПАКСКОМ ЯЗЫКАХ.....	259-264
<i>Бегжанова Айсилу Махмудовна</i> ИНГЛИЗ ВА ЎЗБЕК ТИЛЛАРИДА КОМПЬЮТЕР ЛИНГВИСТИКАСИ ТЕРМИНЛАР ТИЗИМИНИНГ ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ	265-270
<i>Kubanova Ilmira Sharifovna</i> EXPLORING ABBREVIATED RAILWAY TERMINOLOGY IN ENGLISH: A COMPREHENSIVE ANALYSIS	271-275
<i>Azamjonova Sarvinoz</i> USE OF TOPONYMS IN MODERN FRENCH MEDIA	276-282
12.00.00 – ЮРИДИК ФАНЛАР	
<i>Muxiddinova Dildora Muxiddinovna</i> O‘ZBEKISTONNING BOJXONA FAOLIYATIGA KIOTO KONVENSIYASINI JORIY ETISHNING HUQUQIY JIHLTLARI VA JSTGA A‘ZOLIKNING TA‘SIRI	283-292
<i>Asadov Eldorjon Nizomiddin o‘g‘li</i> SOLIQ NAZORATI HUQUQIY ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH DAVLAT MOLIVAVIY NAZORATI INSTITUTINING MUHIM OMILI	293-298
<i>Mustanov Ixom Abdivalijonovich</i> BANK QONUNCHILIGINI BUZGANLIK UCHUN JAVOBGARLIKNING NAZARIY-HUQUQIY JIHLTLARI	299-304
<i>G‘oyibov Jo‘rabek Choriyevich</i> YOSHLAR MIGRATSIYASI: MUAMMO VA YUTUQLAR TAHLILI	305-309
13.00.00 – ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ	
<i>Kuziyev Otabek Chuliyevich</i> TALABALARDA AXBOROT MODELLASHTIRISH KO‘NIKMASINI SHAKLLANTIRISHNING MUHIM UCH BOSQICHI	310-314
<i>Fattaxova Diloram</i> TIL O‘QITISHDA FOYDALANILADIGAN KOMPYUTER METODLARI	315-321
<i>Moydinova Elmira</i> APPLICATION OF FLIPPED LEARNING METHODS IN THE UNIVERSITY	

CLASSROOM	322-326
<i>Xodiyeva Gulhayo Hasan qizi</i>	
ZAMONAVIY BOSHLANG'ICH TA'LIMDA 4K MODEL KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHGA INTEGRATIV YONDASHUVNING MOHIYATI	327-333
<i>Doniyorova Gulrux Shoniyozovna</i>	
AVTOMOBILSOZLIK YO'NALISHI TALABALARINING KASBIY KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHDA DASTURIY VOSITALARNING AHAMIYATI	334-338
<i>Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna</i>	
RIVOJLANTIRUVCHI TA'LIMNING ASOSIY NAZARIYALARIDA TA'LIM OLUVCHINING ANALITIK QOBILIYATINI SHAKLLANTIRISH MUAMMOLARI	339-344
<i>Xo'jamberdiyeva Dilfuza Ikramovna</i>	
DARSLIK BILAN ISHLASH O'QUVCHILARNING AXBOROT KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH VOSITASI SIFATIDA	345-351
<i>Mamaraimov Bekzod Qodirovich</i>	
O'QUVCHILARNING TADQIQOTCHILIK KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH VA ULARNING QIDIRUV FAOLIYATIGA TAYYORLIGI	352-356
<i>Xudayberdiev Nurislam Nuralievich</i>	
BO'LAJAK O'QITUVCHILARINING RAQAMLI KOMPETENTLIGINI SHAKLLANTIRISHNING TASHKILIIY-PEDAGOGIK MEXANIZMI	357-363
<i>Qarshiyev Jamshid Murotaliyevich</i>	
TALABALARINING O'QUV FAOLIYATI VA ILMIY IZLANISHLARIDA SUN'IY INTELLEKT: IMKONIYAT VA CHEGARALAR	364-369
<i>Teshaboyeva Shahodat</i>	
ZAMONAVIY SHAROITDA SHAXSNING KASBIY HUQUQIY MADANIYATI	370-375
<i>To'rayeva Dilnoza Ismoilovna</i>	
RAQAMLI TA'LIM MUHITIDA BO'LAJAK O'QITUVCHINING KASBIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH USLUBIY TAYYORGARLIKNING BIR QISMI SIFATIDA	376-380
<i>Beknayeva Shaxnoza Vladimirovna</i>	
MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA INSON RESURSLARINI BOSHQARISHDA INNOVATSION JARAYONLAR	381-388
<i>Dusyarov Salimjon Xudaymurotovich</i>	
HARAKATLI O'YINLAR ASOSIDA MAKTAB O'QUVCHILARIDA JISMONIY MADANIYATNI SHAKLLANTIRISH	389-393

Mamatqulova Zilola Rejabaliyevna
FarDU mustaqil tadqiqotchisi

RISHTON KULOLCHILIK MAKTABI KASB-HUNAR LEKSIKASINING STUKTURAL TASNIFI

Annotatsiya. Mazkur maqolada Rishton kulolchilik maktabi kasb-hunar leksikasining stuktural tasnifi hususida fikr-mulohazalar bayon etilgan. Shuningdek, maqolada Rishton kulolchilik maktabi kasb-hunar leksikasidagi tub terminlar, yasama terminlar, qo'shma terminlar, juft, birikmali va izofali terminlari hususida ham mulohazalar keltirilgan.

Kalit so'zlar. Rishton kulolchiligi, kulolchilik, leksema, kasb-hunar, terminlar, terminologiya, terminosistema.

Mamatkulova Zilola Rejabaliyevna
FarSU independent researcher

STRUCTURAL CLASSIFICATION OF VOCATIONAL LEXICON OF RISHTAN POTTERY SCHOOL

Abstract. This article presents opinions on the structural classification of the vocational lexicon of the Rishtan pottery school. Also, the article contains comments on the basic terms, artificial terms, compound terms, double, compound, and compound terms in the vocational lexicon of the Rishtan pottery school.

Keywords: Rishtan pottery, pottery, lexeme, profession, terms, terminology, terminosystem.

Маматкулова Зилола Реджабалиевна
независимый исследователь ФарГУ

СТРУКТУРНАЯ КЛАССИФИКАЦИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ЛЕКСИКОНЫ РИШТОНСКОЙ ГОНОЧНОЙ ШКОЛЫ

Аннотация. В данной статье представлены мнения о структурной классификации профессиональной лексики Риштонской гончарной школы. Также в статье приведены комментарии к основным терминам, искусственным терминам, составным терминам, двойным, составным и составным терминам в профессиональном лексиконе Риштонского гончарного училища.

Ключевые слова. Риштонская керамика, гончарное дело, лексема, профессия, термины, терминология, терминосистема.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4SI2Y2024N35>

Kirish. Hozirda jahon tilshunosligida tilni inson, uning ongi, tafakkuri va turli faoliyat turlari bilan bog'liq holda tadqiq etishga qiziqish ortmoqda. Har qanday faoliyat turi o'zining terminlar tizimiga ega. Kasb-hunar terminologiyasi har bir til lug'at boyligining tarkibiy qismi sanaladi. Terminlarda muayyan sohaning o'ziga xos xususiyatlari, soha vakillarining fazilatlarini, real dunyo bilan o'rnatilgan aloqa va munosabatlarning turli jihatlari keng namoyon bo'ladi.

Har bir til taraqqiyot jarayonida murakkab evolyutsion bosqichlarni bosib o'tadi. Ma'lum bir adabiy tilning paydo bo'lishi, taraqqiy etishi bugungi ko'rinishga kelishi uning ma'lum darajada uning sohaviy leksikasi bilan ham bog'liqdir. Xususan, kulolchilik o'zbek milliy hunarmandchilik sohalaridan biridir. O'zbek tilshunosligida kasb-hunar leksikaning turli sohaları o'rganish obyektini sifatida tadqiqotga tortilgan. Kulolchilik sohasiga oid birliklarni tadqiq etish kun tartibidagi zaruriy masalalardan biri sanaladi. Yurtimizda qadimdan shakllanib kelayotgan kulolchilik an'analarini asrab-avaylash, tiklash va rivojlantirish, xalqaro darajada keng targ'ib qilish, kulolchilik mahsulotlari ishlab chiqarishni kengaytirish va uning eksport darajasini oshirish, usta kulol hunarmandlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, usta-shogird maktablari faoliyatini takomillashtirish maqsadida 2021-yilning 23-martida "Kulolchilikni rivojlan-tirishni tezlashtirish va qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi Prezident qarori qabul qilindi va bu sohaga e'tibor kuchaytirildi. Sababi kulolchilik buyumlari o'zbek xalqining yuzi sifatida mamlakatimizga tashrif buyurgan sayyohlarni hayratlantirib kelmoqda. Bu esa o'zbek madaniyatini dunyo bo'ylab yoyish uchun bir omil, ya'ni tashrif qog'ozi sifatida xizmat qiladi. Bundan ko'rinadiki, kasb-hunar leksikasi ayni paytda milliylik belgisi hamdir. Uni kishilarning mehnat faoliyati, kundalik mashg'uloti bilan bog'liq holda o'rganish maqsadga muvofiqdir.

Tahlil va natijalar. Tilshunoslikda so'zlar tuzilish jihatdan sodda, qo'shma, juft va takroriy turlarga ajratib o'rganiladi. Terminologiya sohasida esa til birliklari birikma shaklida ham qo'llanilishi ta'kidlanadi. Rishton kulolchilik leksikasini grammatik tuzilish tomondan tekshirib ko'rish natijalari umumxalq tiliga xos bo'lgan xususiyatlar bu leksikada ham to'la aks etganligini ko'rsatadi. Mazkur birliklar asosan quyidagi ko'rinishga ega:

1. Sodda terminlar: a) tub terminlar; b) yasama terminlar.
2. Qo'shma terminlar:
3. Juft terminlar.
4. Birikmali va izofali terminlar.

Terminosistemaning struktur belgilarini o'rganishda bir qancha tilshunos olimlarning qarashlariga yondashdik. Jumladan, R.Doniyorov o'zbek texnik terminologiyasining o'ziga xos belgilarini inobatga olgan holda tasniflaydi. Olimning fikricha, o'zbek tilining texnikaviy terminologiyasida sodda terminlarga nisbatan murakkab terminlar salmoqli miqdorda ekanligini, sintaktik usul bilan yasalgan terminlar, barcha tillarda bo'lganidek, o'zbek tilida ham muhim nominativ manba sanalishi bilan izohlaydi.[1.B.148]

R.Doniyorov sintaktik usul bilan hosil bo'lgan texnik terminlarni ot+ot, nisbiy sifat+ot, sifatdosh+ot, jarayon nomi+ot tipidagi ko'rinishlarga ajratgan. Olim ot+ot tipidagi terminlarni I tip izofali, II tip izofali, III tili turlarga bo'lgan. U bunday terminlarni yasalishi jihatidan sintaktik usul bilan yasalgan terminlar sifatida, tuzilishi jihatdan esa *qo'shma terminlar* sifatida baholagan.[1.B.148]

N.Qosimov "O'zbek tili ilmiy-texnikaviy terminologiyasi masalalari" (So'z o'zlashtirish va affiksatsiya masalalari) deb nomlangan asarida qo'shma termin haqida quyidagilarni bayon qiladi: "O'zbek tili leksikasida ilmiy-texnikaviy tushunchalarni ifodalovchi qo'shma terminlar salmoqli o'rin egallaydi... Umumtilshunoslikdagi "qo'shma so'zlar" terminiga qiyosan terminologik sistemalardagi xuddi shu tipdagi, ya'ni ikki va undan ortiq mustaqil termin yoki terminelementlarning o'zaro qo'shib hosil qilingan yangi leksik birlik – yangi yaxlit terminga "qo'shma termin" birikmasini qo'llash maqsadga muvofiqdir".[2.B.47]

Yuqoridagi fikrlardan N.Qosimov V.V.Vinogradovning qarashlariga tayangan holda shu xulosaga kelgan "... soʻz yasash sohasida tilning ichki rivojlanish qonunlari, ayniqsa, yaqqol koʻrinadi. Yangi soʻzlarning yasalishi tilda allaqachon barqarorlashgan yoki yangi oʻzaklarning ajralishi va yangi affiksalar unsurlarning qoʻllanilishi bilan, shuningdek, soʻz yasash sistemasining rivojlanishi va takomillashuvi bilan bogʻliq holda yangidan vujudga kelayotgan modellar hamda soʻz yasash tiplari boʻyicha amalga oshadi".[3.B.155]

Rishton kulolchilik maktabi leksikasi tadqiqot obyekti sifatida toʻplandi va tahlilga tortildi. Ularning struktur tahlili quyidagi natijalarni koʻrsatdi.

1-jadval.

Kulolchilik terminlarining tuzilishiga koʻra turlari

Sodda		Qoʻshma	Juft	Birikmali va izofali
Tub	Yasama	46	4	198
162	54			
34,91%	11,56%	9,91%	0,8%	42,60%

Oʻzbek tilining kulolchilik leksikasi boʻyicha olib borgan kuzatishlarimiz ham oʻzbek tilshunosligida qayd etilgan nazariy fikrlarni toʻla isbotlaydi. Sohaga oid leksik birliklarni tuzilishiga koʻra sodda, qoʻshma, juft, birikmali, izofali terminlarga ajratiladi. Bir qancha tilshunoslarning fikrlariga tayangan holda Rishton kulolchilik maktabi kasb-hunar leksikasini tuzilish jihatidan quyidagicha tasnifladik:

- I. Sodda terminlar;
- II. Qoʻshma terminlar;
- III. Juft terminlar;
- IV. Birikmali terminlar va izofali terminlar.

Ularning terminosistemada yasali holatlarini inobatga olgan holda, ikki katta guruhga boʻlib oʻrganamiz a) sodda terminlar; b) murakkab terminlar

I. Sodda terminlar: Kulolchilik terminosistemasida sodda terminlar miqdor jihatdan yetakchilik qiladi. Toʻplangan terminlarning 46,47%i sodda terminlar sanaladi. Sodda terminlar morfem tarkibi jihatdan yana ichki guruhga ajraladi: 1. Sodda tub 2. Sodda yasama.

1. Sodda tub terminlar – bir asosdan tashkil topgan va tarkibida lugʻaviy shakl yasovchi morfema mavjud boʻlmagan terminlar. Masalan: kosa, xum, piyola, sir, kulol, sopol, tuproq, tumshuq, gʻunt, tovoq, gil, loy kabilar. Sodda terminlarning katta qismi ot soʻz turkumiga mansub, buning sababi, yuqorida taʼkidlab oʻtganimizdek, Rishton kulollarining fors-tojik tilida soʻzlashishi asosiy omil sanaladi. Feʼl soʻz turkumiga mansub boʻlgan faoliyat-jarayon nomini anglatuvchi terminlarni oʻz qatlamga oid terminologik birlik ekanini koʻrishimiz mumkin. Shu asosda oʻzbek kulolchilik terminosistemasi tarkibidagi mavjud sodda terminlarning derivativ xususiyatlarini inobatga olgan holda ikki guruhga boʻlib oʻrganish mumkin.

Sodda tub terminlar tarkibidagi fonemalarning tuzilishi jihatdan asosan quyidagi qurilma qoliplariga ega (V-vokal, C- konsonant):

1. Bir bo'g'inli terminlar:

- a) VC – o'q (kulollik charxining bir qismi)
- b) CVC – loy, sir, xum, gil,
- s) CVCC – naqsh, charx

2. Ikki bo'g'inli terminlar:

- a) CVCCVC – choynak
- b) CVCV – ko'za, kosa, loya, chega
- s) CVCVC – lagan, sopol, tovoq, kulol, koshin. zulma
- d) CVCCV – sarna, zulma,

3. Uch bo'g'inli terminlar:

- a) CVCVCV – chapiya, bodiya, piyola
- b) CVCCVCV – balbala

Ma'lumki, leksemalar qolipi uning tarkibidagi unli va undosh tovushlar miqdori va o'rniga bog'liq. Leksemalar tarkibidagi bo'g'inlar miqdori ortgani sari ularning qurilma qolipi va variantlari shuncha ko'payib boraveradi. Yuqorida ko'rganimizdek, bu qurilma qoliplari xilma-xil, ammo biz ularning kulolchilik terminologiyasida ko'p uchragan sodda tub terminlariga to'xtalib o'tdik.

2. Sodda yasama terminlar – tarkibida so'z yasovchi qo'shimchalar bo'lgan terminlar. Tadqiqotda sodda yasama terminlarning 54 tasi (11,56% i) aniqlandi. Masalan: koshinkor, g'ujamak, loya, sirli, poshnali, xumdon kabilar. Sodda yasama terminlarning salmog'i sodda tub terminlarga nisbatan kam. Sodda yasama terminlarni yasashda asosan quyidagi so'z yasovchi morfemalar ishtirok etadi.

2-jadval.

Rishton kasb-hunar leksikasini yasashda faol qatnashuvchi ko'makchi morfemalar

T/r	Ko'makchi morfema	Misol
1	-chi	Koshinchi, xumdonchi
2	-gar	Ko'zagar, kosagar
3	-kor	Gilkor, o'ymakor
4	-kash	Chizmakash
5	-soz	Dastgohsoz
6	-paz	Koshinpaz

Rishton kulolchilik maktabi kasb-hunar leksikasi tarkibidagi so'z yasovchi morfemalarga ishimizning keyingi o'rinlarida batafsil to'xtalib o'tganmiz.

II. Qo'shma terminlar. Birdan ortiq asosning o'zaro birikib, bir umumiy tushuncha bildirishidan hosil bo'ladi. Qo'shma terminlar umumadabiy tildagi qo'shma so'zlarga qiyosan tuziladi. Ma'lumki, umum til leksikasi bilan uning bir qismi hisoblangan terminologik leksika orasida doimiy aloqa mavjud, ular doim bir-birini boyitib turadi. Qo'shma so'z va qo'shma terminlar orasida ham shunday aloqani ko'ramiz. Chunonchi, qo'shma terminlarning yasalish modellari, tiplari aynan, tilda avvaldan mavjud bo'lgan qo'shma so'zlar asosida yuzaga keladi; shu bilan birga, terminologik sistemalarda yuzaga kelgan qo'shma terminlarning maxsus

modellari va tiplari, o'z navbatida, umumiste'mol doirasiga o'tib, bu yerda keng qo'llanishda bo'ladi.[4.B.55] Qo'shma terminlar kulolchilik kasb-hunar leksikasida ham qo'llab kelinayotganligini ta'kidlash lozim.

Kulolchilik terminologiyasida 46 ta ya'ni 9,91% ni qo'shma terminlar tashkil etadi. A.Madvaliyevning ta'kidlashicha, «... Qo'shma terminlar ayrim jihatlari bilan qo'shma so'zlardan ma'lum darajada farq qiladi. Masalan, qo'shma so'zlar barcha mustaqil so'zlar doirasida amal qilishi mumkin. Qo'shma terminlar esa asosan ot turkumi doirasida amal qiladi. Qo'shma sifatlar faqat termin element, ya'ni birikma terminning aniqlovchi komponenti sifatidagina qaraladi».[4.B.55]

Qo'shma so'z tarkibli terminlarning modeli (A (asos)+A (asos))bo'ladi. O'zbek tilida bu holatda bir tilga xos o'zaklardan hosil qilingan va turli tillarga xos bo'lgan o'zaklardan tuzilgan terminlarni ko'rishimiz mumkin. Ayniqsa, kulolchilik buyumlarida qo'llanilgan naqshlar, bezaklar, chizmalar nomi qo'shma shaklga ega ekanligini kuzatish mumkin: anorgul, bodomgul, qalampirgul, nokgul, pistagul, qovoqgul, karnaygul, qiyoqo't, lolagul, buragul, g'unchagul, gulxayri, gulqo'chqaroq, jiydagul, qo'shixat, uchxat, to'rtxat, jibilajibon, chumchuqqanot, qarg'atirnoq, gilosbarg, pistagul, parparak, charxpalak, tumoryo'l, oqsoqol, ustaboshi, najjorboshi, oqtosh, oqqum, yulduzbosma kabi.

Barcha terminosistemalarda qo'shma terminlar ko'p miqdorni tashkil qiladi. Bu holat kulolchilik terminosistemasiga ham taalluqli fikrdir. Qo'shma terminlar boshqa murakkab leksemalar kabi birdan ortiq leksik birliklardan tashkil topishi bilan ajralib turadi. Qo'shma, juft va takroriy leksemalar haqida A.Hojiyev, SH.Rahmatullayev, N.Mamatov, Z.O'rinboev kabilarning tadqiqotlarida, darslik va qo'llanmalarda muhim mulohazalar bildirilgan. O'zbek tili terminologiyasiga oid tadqiqotlarda ham mazkur tipdagi terminlar ozmi - ko'pmi o'rganilgan.[5.B.136]

III. Juft terminlar. Kulolchilik terminosistemasiga juft terminlar miqdori juda kam, 12 ta mazmuniy guruh doirasidan faqat bittasida maishiy buyum nomlarini anglatuvchi terminlarda uchraydi. Mazkur terminlar kulolchilik terminosistemasining 0,8% ini tashkil etadi. Jumladan, choynak-piyola, idish-tovoq, qozon-tovoq kabilar.

Sodda terminlar Rishton kulolchilik maktabi kasb-hunar leksikasining asosiy qismi sanalib, terminosistemada 196 ta ya'ni 46,47 %ni tashkil etadi. Sodda terminlar morfem tarkibi jihatdan yana ichki guruhga ajraladi: a) sodda tub b) sodda yasama terminlar. Sodda tub terminlar 162 ta, sodda yasama terminlar 54 tani tashkil etadi. Demak, sodda yasama terminlarga nisbatan sodda tub terminlar salmoqlidir.

IV. Birikmali va izofali terminlar. Ilmiy tadqiqotlarimizda shu narsa aniq bo'ldiki, ona tilimizning kulolchilik terminologiyasida ham izofali terminlar o'ziga xos munosib o'rinni egallaydi. Tadqiqot obyektimizda birikma terminlar ham salmoqli o'rin egallaydi. Jumladan, terminosistemaning 42,60% ya'ni 198 tasi birikmali va izofali terminlardan tarkib topgan. "Hozirgi ilmiy-texnika yoxud kasb-hunarlar terminologik tizimlariga murojaat qilinganda, yakka terminlar (tub, yasama, qo'shma, juft)ga nisbatan birikma terminlar miqdor jihatidan ko'proq ekanligi ma'lum bo'ladi".[6.B.79-80] Rishton kulolchilik kasb-hunar leksikasi tarkibida mavzuiy guruhlariga oid tushunchalarni ifodalashda birikma terminlar ham faol ishtirok etadi.

Birikma terminlar terminlarni quyidagi ma'no guruhlariga ajratish mumkin:

1. Ish-harakat, jarayon bildiruvchi terminlar: loy tarosh, loy uqalash, tobini olish, zulma ochish, zulma tortish, poshna chiqarish, sir berish, gul solish, xumdon yuklash;

2. Buyum (qurol, mahsulot, ularning qismlarini), xomashyo anglatuvchi terminlar: piyolaning labi, kosaning poshnasi, choynakning qopqog'i, ariq og'zi.

3. Sifat-holat bildiruvchi terminlar qismiga bo'lish mumkin: xom idishlar, tagi siyoh, chekma xol, taroq chekim, sopol idish, chuqur tovoq, pastki o'choq og'zi.

Izofali terminlar ham birikma terminlar tarkibiga kiruvchi birliklardir. Demak, terminologik maydonning bir qismini murakkab terminlar tashkil qiladi. Ularning salmoqli qismi naqsh, bezak turlarini anglatuvchi terminlar sanaladi. Mazkur terminlar tarkibida kelgan nomlarni turkiy (o'zbekcha) birikmali va forsiy izofali birikmalar sifatida ikkiga ajratish mumkin. Turkiy (o'zbekcha) birikmalarga quyidagilarni kiritish mumkin: yulduz bosma, rayhon bargi, koptok zanjira, kulcha zanjira, dolchin bargi, jingalak zanjira, ilmoq zanjira, g'ildirak zanjira, behi guli, ponis naqshi, olu guli, uzum guli, binafsha gul, qo'chqaroq zanjira, islami taroq, bodring zanjirasi, tarvuz zanjirasi, kapalak zanjira, gajak barg, tarvuz guli, nok guli, pistagul, norij guli, oddiy gul, qush dumi, qo'y tuyog'i, qora ilon, ho'kiz shoxi, ho'kiz ko'zi, qush ko'zi, katta mola, kichkina mola, naqshin qolip, lagan qolip, oqsoqollar kengashi, loy tayyorlamoq, xumdonga solmoq, olovda pishirmoq, ishlov bermoq, gul solmoq, shakl bermoq, kichik g'ildirak, katta g'ildirak, yog'och o'q va boshqalar.

Taklif va tavsiyalar. Yuqoridagilardan kelib chiqib quyidagi taklif va tavsiyalarni ilgari surdik:

- Rishton kulolchilik maktabi kasb-hunar leksikasiga oid o'quv adabiyotlarini yaratish;
- Rishton kulolchilik maktabi leksikasidagi tub terminlar, yasama terminlar, qo'shma terminlar, juft, birikmali va izofali terminlari yuzasidan davra suhbatlari va teleko'rsatuvlar tayyorlash;
- Kulolchilik maktabi leksemasi yuzasidan tadqiqot olib brogan olimlar bilan masterklasslar uyushtirish va keng jamoatchilikni habardor qilib boorish maqsadga muvofiq.

Xulosa. Rishton kulolchilik maktabi kasb-hunar leksikasi struktur jihatdan tub terminlar, yasama terminlar, qo'shma terminlar, juft, birikmali va izofali terminlarni tashkil etadi. Bunda terminlar tarkibi sodda tub (A (asos)) terminlar: piyola, kosa, loy, sir; sodda yasama (A (asos)+aff.) terminlar: besir, loya, naqshin, kosagar, guldon; qo'shma (A (asos)+A (asos)) terminlar: obdasta, to'ytovoq, oqpaz hamda birikmali (L+L) terminlardan: tobini olish, zulma ochish, xumdon yuklash, dog'ini ketkazish iborat bo'ladi.

Umum-o'zbek tili doirasida mavjud bo'lgan so'z yasovchi qo'shimchalarning aksariyati kulolchilikka oid atamalarini yasashda qatnashadi. Kuzatishlarimiz natijasida -chi, -gir, -xona, -kash, -kor, -don, -lik, -chilik, -li, -simon, -soz, -furush, -paz kabi ko'makchi morfemalarning faolligi isbotlandi. Serunum qo'shimcha sanalgan -kor, -gar, -paz, -soz, -xon, -dor, -furush kabi affikslari esa aslida tojikcha fe'l o'zaklari bo'lib, ular hozirgi o'zbek adabiy tilida xuddi -chi kabi "shug'ullanuvchi" ma'nosidagi kasb-hunar bilan bog'liq shaxs otlarini ifodalash uchun xizmat qiladi.

Kompozitsiya yo'li bilan yasalgan terminlardan qo'shma terminlar komponentida kelgan so'zlar jo'nalish kelishigi bilan kelgan ot – tobga kelish, qaratqich kelishigi bilan kelgan ot – tol bargi, anorgul; chiqish kelishigi bilan kelgan ot – dastmoldan chiqish, tushum kelishigi bilan kelgan ot – tobini olish kelishik shakllarida ishlatiladi. Ko'rinadiki, o'rin payt kelishigi bilan birga qo'llanuvchi terminlar uchramaydi.

Kulolchilik terminlari tarkibida, asosan, naqsh nomlarini anglatuvchi terminlar guruhida izofaviy birliklar salmoqli o‘rin egallaydi. Mazkur birliklarning asosiy qismini forsiy+forsiy bargi gulnor, guli behi, guli olubolu, guli binafsha, guli angor, daraxti xurmo, guli anor, guli binafsha, so‘zlardan , forsiy+ o‘zbekcha dumi baliq, bargi tug‘, qanoti o‘rdak, qanoti kapalak, dumi murg‘, dumi burgut, qanoti boyqush, guli tarbuz kabi so‘zlardan tashkil topgan izofali birliklar tashkil qiladi.

Адабиётлар / Литература / References:

1. Doniyorov R. O‘zbek tili texnik terminologiyasining ayrim masalalari. – Toshkent.: Fan, 1977. – B.148
2. Qosimov N. O‘zbek tili ilmiy-texnikaviy terminologiyasi masalalari (So‘z o‘zlashtirish va affiksatsiya masalalari). – Toshkent.: Fan, 1985. – B.47
3. Виноградов В.В. Вопросы современного русского словообразования / Избранные труды. Исследования по русской грамматике. – Москва: 1975. – С.155.
4. Madvaliyev A. O‘zbek terminologiyasi va leksikografiyasi masalalari. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2017. – B. 55.
5. Berdiyev X.X. O‘zbek tilining o‘tovsozlik leksikasi: Filol. fan. bo‘yicha falsafa dokt... diss.– Samarqand, 2017. – B. 136.
6. Mirahmedova Z. O‘zbek tilining anatomiya terminologiyasi va uni tartibga solish muammolari. - Toshkent: Fan, 2010. - B.79-80

SCIENCEPROBLEMS.UZ

ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

№ S/2 (4) – 2024

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамияти

Таҳририят манзили:

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил:

scienceproblems.uz@gmail.com

Боғланиш учун телефонлар:

(99) 602-09-84 (telegram).